



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д. Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:

и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Olimjon G‘ayrat o‘g‘li Fattoyev Peculiarities of stock market development	157
Abdulxay Xasanboyevich Xodjayev, Omonilla Saydaminovich Umarov Transformatsion davlatda iqtisodiy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi omillar	160
Рохила Баходир қизи Азизова Заргарлик хизматларини кўрсатишда маркетинг стратегияларидан фойдаланиш	163
Shahnoza Abdirashitovna Po‘latova Global iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar va yashil marketing konsepsiyasidan foydalanishning dolzarb masalalari	169
Xilola Nematovna Ochilova O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari	173
Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov Operatsion faoliyat, uni boshqarish va yangi tendensiyalar	178
Bezodjon Oblakulov, Mekhrusa Vafokulova Marketing analysis of international brand in the case of “Chartak mineral water jv ltd”	182
ИНВЕСТИЦИЯ	
Заррух Умарович Мухаммадиев Иқтисодиётнинг ривожланишида капитал инвестицияларнинг роли ва аҳамияти	186
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Жахонгир Расулович Зайналов Проблемы налогообложения прибыли инновационных предприятий	192
Xusnora Dilmurod qizi Umarova Kuchli raqobat sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlash masalalari	196
Abdusamat Abdusaitovich Mamanazarov Bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy mexanizmlarini tatbiq etish	199
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Mamurjon Avazxon o‘g‘li Abdivoxidov Xizmat ko‘rsatish sohasini samarali rivojlantirish yo‘llari	206
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Jaxongir Baxtiyorovich Quljanov, Shaxnoza Ergashevna Samandarova Katta sonlar qonuni va markov teoremasi	213
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Мамлакатимизда маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш соҳасини янги босқичга олиб чиқиш, ёшларни ўз атрофига жалб этадиган лойиҳа ва ташаббусларга оид айрим таклиф ва тавсиялар	216
ИБРАТЛИ БИТИКЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Бола тарбияси	218

6. Сулейманов М.М., Магомедова Р.М., Мирзаханова А.М. Роль налога на прибыль организаций в формировании доходной базы региональных бюджетов // Управленец. 2015. №4 (56). - С. 42-48; Харебов А., Батяева А.М. Налог на прибыль организаций как источник дохода бюджета Российской Федерации // Образование и право. 2020. №4. – С. 176-179.
7. Зайналов Дж.Р., Алиева С.С., Ахроров З.О. и другие. Налоги и налогообложение. Учебник. - Т.: Экономика и финансы, 2021. - 63 с.
8. Данченко М.А. Налогообложение. Учеб.пос. – Томск: ТГУ, 2015. – с. 78.
9. Mardiasmo D. Taxation, Publisher Andi, Revition Edition, 2013. – p. 55.
10. Окно в Китай: консалтинговая группа: [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://www.chinawindow.ru> (дата обращения: 25.04.2024).
11. Ляскин Д. Д., Никифоров Н. Г. Налогообложение прибыли в России и в зарубежных странах //Научный редактор. – 2024. – С. 48.

J.Zaynalov	J.Zaynalov
Innovatsion korxonalar foydasini soliqqa tortish muamollari	Problems of taxation of innovative enterprises' profit
<p>Annotatsiya. Maqolada korxonalar foydasiga soliq solishning amaldagi mexanizmi, foyda solig'i stavkasini kamaytirish yoki oshirish yoki soliq solinadigan bazani kamaytirish (ko'paytirish)ning mumkin bo'lgan variantlari qayd etilgan. Korxonalar faoliyatining holati va yo'nalishiga qarab foyda solig'i stavkasini o'zgartirish bo'yicha aniq takliflar berilgan. Korporativ daromad solig'i soliq modelining o'zagiga aylanishi kerak.</p> <p>Kalit so'zlar: soliqqa tortish, bozor narxlari, qoidalar, ma'lumotlar, ma'lumotlar manbai, operatsiyalar, xarajatlar, tannarx, soliq bazasi.</p>	<p>Abstract. The paper notes the current mechanism for taxing the profits of enterprises, possible options for reducing or increasing the tax rate on profits or reducing (increasing) the tax base. Specific proposals are given for transforming the tax rate on profits depending on the state and direction of activity of enterprises. The corporate income tax should be the core of the tax model.</p> <p>Keywords: taxation, market prices, regulations, information, source of information, transactions, costs, cost price, tax base.</p>

Xusnora Dilmurod qizi Umarova – Namangan muhandislik-texnologiya institutining mustaqil tadqiqotchisi

KUCHLI RAQOBAT SHAROITIDA KORXONALAR MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda kuchli raqobat muhitida korxonalar faoliyatini rivojlantirishga har tomonlama o'z ta'sirini o'tkazuvchi omillar, kuchli raqobat shakllangan bozorda korxonalarini raqobatbardoshligini ta'minlash choralari ko'rish va buning uchun xorijiy investitsiya mablag'larini keng jalb etish masalalari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: korxonalar, investitsiyalar, ishlab chiqarish, resurslar, moliyaviy barqarorlik, korxonalar eksport salohiyati, samarali boshqaruv, xorij tajribasi.

Kirish. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga qat'iy o'tishi jarayonida raqobat masalasi prinsipial ahamiyatga ega ekanini ta'kidlagan.

“Meni tashvishlantiradigan masala shuki, korxonalarimiz tashqi raqobatga bardosh bera oladimi? Chetdan tovar kirib kelsa, yurtimizda ishlab chiqarilgan xuddi shunday mahsulot unga raqobatchi bo'la oladimi? Mahalliy mahsulotlarning tannarxini pasaytirsak, xorijdan o'zlari olib ketishadi”, – degan Prezident.

Xabarda bugungi kunda 31 ta tovarlar guruhi va 82 turdagi xizmatlar bozorida 245 ta korxonalar monopol holatda saqlanib qolayotgani, lekin bir qator yo'nalishlarda raqobat muhiti shakllanib bo'lgan 19 xil mahsulot va xizmatlar bo'yicha 70 ta korxonani monopolistlar reyestrndan chiqarish mumkinligi qayd etilgan.

“Raqobat bo‘lmasa, sifat bo‘lmaydi, narx tushmaydi. Zamon o‘zgaryapti, lekin monopoll korxonalar o‘zgara olmayapti. Qat’iy choralar ko‘rish vaqti-soati keldi. Iqtisodiyotda bu hayot-mamotimiz. Rahbarlar shunga munosib bo‘lsa, ishlaydi, bo‘lmasa – ketadi”, – degan Shavkat Mirziyoyev.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal rivojlanmoqda. Korxonalarni kuchli raqobat muhitida moliyaviy jihatdan barqaror rivojlanishi juda muhim hisoblanadi. E’tirof etish lozimki, bugungi kunda ko‘plab korxonalar o‘z faoliyatini tashkil etish borasida aniq bir strategiyani ishlab chiqmasdan faoliyatni boshlashlari natijasida moliyaviy nochor holatga kelib qolmoqda. Korxonalarni esa moliyaviy inqiroz sharoitidan olib chiqish qo‘shimcha mablag‘larni jalb etish orqali hal etish mumkin. Bu esa investitsiya mablag‘larini korxonalariga keng jalb etish lozimpligini anglatadi. Korxonalariga xorijiy investitsiya mablag‘larini keng jalb etish yurtimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirishga zamin yaratadi.

Bugungi kunda har bir sohani tegishli hududlar imkoniyatidan kelib chiqib rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda korxonalarni tashkil etishni ko‘paytirish va ular faoliyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirish va u orqali aholi bandligini ta’minlash, daromadlarini oshirish masalasi hukumatimizning doimiy e’tiborida turgan masalalardan biridir. Buning uchun esa korxonalarni boshqaruv samaradorligini ta’minlashda, bankrotlik yoqasiga kelib qolishini oldini olish maqsadida respublikamizda har yili tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan hukumat qarorlari, Prezident farmonlari va qarorlari qabul qilinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Korxonalar faoliyatini tashkil etish, boshqaruvini to‘g‘ri yuritish, daromad olish manbalarini aniqlash, xarajatlarini nazorat qilish kabi masalalar bugungi kunda ham eng dolzar ahamiyatga ega bo‘lib, tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularga A.Z.Avlokulov, A.A.Karimov, M.K.Pardayev, A.X.Pardayev, N.K.Rizayev, B.A.Xasanov, O.O.Sobirov va boshqalarning olib borgan ilmiy tadqiqotlari muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Material va metod. Biz olib borayotgan tadqiqotlarimizni samarali bo‘lishida guruhlash, qiyosiy tahlil, anketa so‘rovnomasini o‘tkazish, natijalarni ekspert baholash, iqtisodiy tahlil kabi usullar tadqiqot ishlarini olib borishda samarali hisoblanadi.

Tahlillar va natijalar. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish yurtimizda ustuvor maqsadlardan biriga aylandi. Bu borada Respublikamizda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun davlat dasturlari, uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish va natijada qo‘shimcha ishchi o‘rinlarini yaratish maqsadlari belgilangan. Ushbu qaror va farmonlar mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligi bilan muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda korxonalar tomonidan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha o‘z faoliyatlarini tashkil etish sezilarli darajada oshmoqda. Bu hududlarda yaratilayotgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar, ishchi kuchini yetarliligi, logistika masalalarini yechilayotganligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuni ham ta’kidlash lozimki, yangi tashkil etilgan korxonalarining hammasi ham o‘z faoliyatini samarali tashkil eta olmayapti. Tahlillar korxonalar faoliyatiga ijobiy va salbiy ta’sir etuvchi omillar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Yuqoridagi omillarga:

- ishlab chiqarishni tashkil etishda xomashyo resurslarini yetishmasligi;
- soliq qarzlarning ko‘payishi;
- import qilinadigan xomashyoning xorijdan import qilib sotib olinishi tufayli narxlarni oshishi;
- jahon miqyosida turli iqtisodiy va boshqa ishlab chiqarish faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadigan xatarlarning paydo bo‘lishi;
- ishlab chiqarishni moliyalashtirish uchun moliyaviy mablag‘larning yetishmasligi kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu boshqaruvni to‘g‘ri tashkil etmaslik natijasida yuzaga keladigan omillardir.

Bundan tashqari: resurslarni global tanqisligi, turli pandemiyalar va ularni salbiy oqibatlarini misol qilib keltirish mumkin. Mazkur omillar korxonalarining moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu ularni bankrotlik yoqasiga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham ushbu omillarni bartaraf etish yuzasidan tezkor chora-tadbirlar ishlab chiqish muhimdir.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, korxonalar faoliyatini rivojlantirish, ularni raqobatbardosh salohiyatga ega bo'lishi bugungi kunda juda muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirishda avvalo boshqaruvni to'g'ri tashkil etish, xarajatlarni nazorat qilib borish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, qo'shimcha moliyaviy resurslarni qidirib topish muhim hisoblanadi.

Korxonalar faoliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning tizimli yechimini topish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir.

Korxonalarni kuchli raqobat muhitida ham samarali rivojlantirish uchun avvalo ularga moliyaviy kapitallarni yo'naltirish, yangi resurslarni qidirib topish dolzarbdir.

Korxonalar faoliyatini moliyalashtirishning quyidagi usullaridan foydalanish samarali hisoblanadi, ular:

- Investitsiya mablag'larini korxonalar faoliyatiga keng jalb etish orqali faoliyatni yanada rivojlantirish;

- Mavjud resurslardan yanada oqilona foydalanish bo'yicha moliyaviy resurslarni tejash orqali faoliyatni barqarorlashtirish.

Korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- Korxonalar faoliyatini samaraliligini ta'minlash maqsadida tijorat banklari kreditlaridan samarali foydalanish;

- Ishlab chiqarishni to'liq mahalliyashtirish orqali import qilinadigan xomashyolar salmog'ini kamaytirish;

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish korxonalarni moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, kuchli raqobat muhitida ham nisbatan arzon va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi, xorijiy investitsiya mablag'lari hisobiga moliyaviy holat barqarorligiga erishish, shuningdek, korxonalarni kengaytirish imkoniyatini yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2021-yil.

2. Sobirov Otabek Olimjonovich. The Cost Of Forming A Management Account In Business Entities. Journal of Pharmaceutical Negative Results. DOI: 10.47750/pnr.2022.13.S07-537.4295-4298.scopus.com/sourceid/21100216519

3. Собиров О. Молиявий ҳисоботларни халқаро стандартлар талаблари даражасида такомиллаштириш. //Халқаро молия ва ҳисоб» илмий журнали. – 2021. – Т. 3. – С. 2181-1016.

4. Sobirov O. Product Development Cost Factors Affecting Reduction. AMERICAN Journal of Public Diplomacy and International Studies. Volume 01, Issue 07, 2023 ISSN (E): 2993-2157. America. 2023. 13-14 p.

5. Otabek Olimjonovich Sobirov. Improvent of management accounting methodology in economic entities. Scientific Journal of "International Finance & Accounting" TMI. Issue 2, April 2023. ISSN: 2181-1016

6. Собиров О. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботларини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш //Монография. Наманган. – 2022.

7. Sobirov O. Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari. – 2024.Toshkent.TDIU. Yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

<p>Х.Умарова</p> <p>Вопросы обеспечения финансовой устойчивости предприятий в условиях жесткой конкуренции</p> <p>Аннотация. В данной статье освещены факторы, влияющие на развитие предприятий в условиях сильной конкуренции в нашей стране, принятие мер по обеспечению конкурентоспособности предприятий на рынке с сильной конкуренцией и привлечение для этой цели иностранных инвестиционных фондов.</p> <p>Ключевые слова: предприятие, инвестиции, производство, ресурсы, финансовая устойчивость, экспортный потенциал предприятий, эффективный менеджмент, зарубежный опыт.</p>	<p>Kh.Umarova</p> <p>Issues of ensuring the financial stability of enterprises in the condition of strong competition</p> <p>Abstract. In this article, the factors influencing the development of enterprises in the environment of strong competition in our country, taking measures to ensure the competitiveness of enterprises in the market with strong competition and attracting foreign investment funds for this purpose are highlighted.</p> <p>Keywords: enterprise, investments, production, resources, financial stability, export potential of enterprises, effective management, foreign experience.</p>
--	---

Abdusamat Abdusaitovich Mamanazarov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

BANK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARINI TATBIQ ETISH

<p>Annotatsiya. Maqolada moliyaviy globallashuv va misli ko‘rilmagan noaniqlik sharoitida bank sektorini tartibga solishning innovatsion yo‘nalishlari o‘rganiladi. U hozirgi davrda bank faoliyatini tartibga solishni shakllantiradigan global tendensiyalar va milliy o‘ziga xosliklarni o‘rganadi, bu iqtisodiy sektordagi tartibga solish faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari va nuanslarini yoritadi. Muallif moliyaviy inqirozlar, texnologik inqiloblar va COVID-19 pandemiyasi kabi omillarning qo‘shilishi natijasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan jahon amaliyotida misli ko‘rilmagan bank faoliyatini tartibga solishning yangi shakllari paydo bo‘lishini aniq misollar orqali ko‘rsatib beradi. Bank faoliyatini tartibga solish tizimlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha innovatsion amaliy chora-tadbirlarni joriy etish zarurligi ta’kidlandi. Maqolada ushbu chora-tadbirlar tartibga solish jarayonlarini o‘zgartirishga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatib, tartibga solishni takomillashtirishga tubdan yangi yondashuvlarni rivojlantirish uchun kompleks ekspertiza muhimligini ta’kidlaydi.</p> <p>Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, Innovatsion markazlar, Sandbox bank tizmi, SupTech, fintech.</p>
--

Kirish. Jahon iqtisodiyotining hozirgi holati va traektoriyasi, ayniqsa, 2007-2009 yillardagi moliyaviy inqirozdan keyingi ta’kidlanganidek, bir-biri bilan bog‘liq ikkita tendensiyani ta’kidlaydi: iqtisodiy o‘shishni tiklashga e’tiborning kuchayishi va iqtisodiy va bank tizimlarini tartibga solishning kuchayishi. Bozor mexanizmlari iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili bo‘lib qolsa-da, davlatning pul sohalar va ularning tegishli institutlarini tartibga solishdagi ishtirokini kuchaytirish tomon sezilarli siljish kuzatilmoqda.

Zamonaviy amaliyotlar va ilmiy sa’y-harakatlar samaradorlikni oshirish, moliyaviy barqarorlik talablarini moslashtirish va bank sektorida paydo bo‘layotgan muammolarni hal qilish uchun yangi tartibga solish modellariga intilishni ta’kidlaydi. Bundan tashqari, pul-kredit siyosatini iqtisodiy rivojlanishning boshqa jabhalari bilan yanada yaqinroq muvofiqlashtirish zarurati mavjud.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va ushbu sohadagi tadqiqotlar moliya fanida etarlicha o‘rganilmagan sohani ko‘rsatadi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zgaruvchan dinamika iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim elementlarini, xususan, bank sektorini o‘rganishda tizimli yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etmoqda.

O‘tish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatlar global iqtisodiy kuchlarning ta’siriga ayniqsa sezgir bo‘lib, ularning moliyaviy va bank tizimlari birinchi bo‘lib eng ko‘p og‘irlik qiladi. Bank tuzilmasini tartibga solishning imperativi va mohiyatini har tomonlama tushunish, ushbu jarayonni asosiy xususiyatlari, tuzilishi va funktsiyalari orqali tavsiflash maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv tartibga solish sohalarini tahlil qilishni osonlashtiradi va

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

12.09.2024 йилда теришга берилди. 27.09.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0110А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.